

**“Ўзтрансгаз” АЖ томонидан 2023 йил давомида товар (иш, хизмат)лар харидларини амалга ошириш учун тузилган шартномалар тўғрисида
МАЪЛУМОТ**

2023 йил якунлари бўйича “Ўзтрансгаз” АЖ томонидан **760,8 млрд. сўмлик** (4 716 та) шартномалар тузилди. Жами тузилган шартномалардан **307,9 млрд. сўм** (1 672 та) хизматлар учун ва **452,9 млрд. сўм** (3 044 та) бўлган қисми товарлар сотиб олиш учун тузилган. Шундан:

- I чорақда 101,6 млрд. сўм (992 та);
- II чорақда 227,8 млрд. сўм (1237 та);
- III чорақда 395,4 млрд. сўм (1316 та);
- IV чорақда 36,0 млрд.сўм (1171 та) шартномалар тузилган.

1. “Ўзтрансгаз” АЖ томонидан маҳаллий корхоналар билан тузилган шартномалар.

2023 йил якунлари бўйича “Ўзтрансгаз” АЖ томонидан ички бозордаги маҳаллий етказиб берувчи корхоналар билан **214,3 млрд. сўмлик** (4 698 та) шартномалар тузилди. Булардан **98,7 млрд. сўм** (1 665 та) хизматлар ва **115,6 млрд. сўм** (3 033 та) бўлган қисми товарлар сотиб олиш учун тузилган. Шундан:

- I чорақда 97,9 млрд. сўм (991 та);
- II чорақда 42,5 млрд. сўм (1233 та);
- III чорақда 44,5 млрд. сўм (1305 та);
- IV чорақда 29,4 млрд. сўм (1 169 та) шартномалар тузилган.

Маҳаллий корхоналар билан тузилган шартномаларни харид турлари бўйича таҳлили:

- Энг яхши таклифларни танлаб олиш – 5,4 млрд. сўм (21 та);
- Аукцион савдолари – 22,1 млрд. сўм (972 та);
- Электрон дўкон – 19,4 млрд. сўм (1874 та);
- Миллий дўкон – 4,4 млрд. сўм (532 та);
- Кооперацион биржа – 44,2 млрд. сўм (296 та);
- СПОТ – 5,9 млрд. сўм (30 та);
- Тўғридан-тўғри – 67,9 млрд. сўм (751 та);
- Ягона етказиб берувчилар – 44,8 млрд. сўм (222 та).

2. “Ўзтрансгаз” АЖ томонидан тузилган импорт шартномалари.

2023 йил давомида “Ўзтрансгаз” АЖ томонидан хорижий корхоналар билан қиймати **19,2 млн. доллар** бўлган (6 та) ва **2,3 млрд. рубль** бўлган (12 та) импорт шартномалари тузилган. Улардан **8,2 млн. доллар** (3 та) ва **1,7 млрд. рубль** бўлган (8 та) товарлар учун ҳамда **11,0 млн. доллар** (3 та) ва **542,0 млн. рубль** бўлган (4 та) хизматлар сотиб олиш учун тузилган. Жумладан:

- I чорақда қиймати 27,4 млн. рубль бўлган (1 та);
- II чорақда қиймати 15,0 млн.доллар (4 та);
- III чорақда қиймати 4,1 млн.доллар (1 та) ва 2,2 млрд. рубль бўлган (10 та);
- IV чорақда қиймати 105,3 минг доллар (1 та) ва 39,1 млн. рубль бўлган (1 та).

Хорижий етказиб берувчи корхоналар билан тузилган импорт шартномаларни харид турлари бўйича таҳлили:


- Энг яхши таклифларни танлаб олиш – 58,1 млн. рубль (4 та);
- Тўғридан-тўғри – 17,4 млн. доллар (5 та) ва 1,9 млрд. рубль (6 та);
- Тендер – 1,8 млн. доллар (1 та) ва 323,7 млн. рубль (2 та).

**Буюртмаларни қабул қилиш
ва таҳлил бўлими бошлиғи**



Ф. Назаров

TASDIQLAYMAN
“O‘ztransgaz” AJ
Boshqaruv raisining
transformatsiya masalalari
bo‘yicha birinchi o‘rinbosari v.v.b.


05.01.2024 Sh.I. Safarov

“O‘ztransgaz” AJning Texnik siyosat bo‘limi tomonidan

2023-yilda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha

HISOBOT

2023-yil mobaynida Texnik siyosat bo‘limi tomonidan 7 marotaba Tarmoq ilmiy kengash hamda 13 marotaba Ilmiy texnik kengash yig‘ilishlari va 14 marotaba ishlab chiqarish yig‘ilishlari tashkil etildi va bayonnomalar rasmiylashtirildi.

Texnik siyosat bo‘limi tomonidan Jamiyatning 6 ta buyruqlari ishlab chiqildi, jumladan:

- 2023-yil 20-yanvardagi “Integrallashgan menejment tizimi bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 10-son buyrug‘i;

- 2023-yil 24-yanvardagi “Jamiyatning energiya tejash va energiya samaradorligi soxasida Texnik siyosatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1-son boshqaruv qarori;

- 2023-yil 27-yanvardagi “O‘ztransgaz” AJ tarkibiy bo‘linma va tashkilotlarida magistral gaz quvurlari va inshootlaridan samarali hamda ishonchli foydalanish bo‘yicha “Favqulodda rejimda” ishlarni tashkil qilish to‘g‘risida”gi 19-son buyrug‘i;

- 2023-yil 28-apreldagi “2023/2024-yillar kuz-qish davrida magistral gaz quvurlari va inshootlaridan samarali hamda ishonchli foydalanishga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 67-son buyrug‘i;

- 2023-yil 3-iyuldagi “2023/2024-yillar kuz-qish davrida magistral gaz quvurlari va inshootlaridan samarali hamda ishonchli foydalanish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarni o‘rganish bo‘yicha ishchi guruhini tuzish to‘g‘risida”gi 100-son buyrug‘i.

- 2023-yil **TEXNIK SIYOSAT** Rejasi (Yo‘l xarita va Boshqaruv qarori).

Jamiyatning “2023/2024-yillar kuz-qish davrida magistral gaz quvurlari va inshootlaridan samarali hamda ishonchli foydalanishga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 67-son buyrug‘iga asosan **PASPORTlari Energetika Vazirligiga** taqdim etildi.

Texnik siyosat bo'lim tomonidan 3 ta yirik hujjatlar bo'yicha 2022-yil 18-noyabrda "O'ztransgaz" AJ va "O'zLITIneftgaz" AJ o'rtasida tuzilgan 0146706-son shartnomaga muvofiq tegishli ishlar amalga oshirilmoqda:

1. "Ilmiy-texnik mahsulotlarni yaratish, o'zlashtirish va joriy etish uchun rag'batlantirish tartibi";

2. "Fan-texnika yutuqlaridan foydalanishning iqtisodiy jihatdan samaradorligini baholash";

3. "O'ztransgaz" AJda ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini tashkil etish to'g'risida nizom".

Jamiyatning 2023-yilga mo'ljallangan TEXNIK SIYoSAT rejasiga asosan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar jamlanib, rahbariyatga taqdim etib borildi.

2023-yilga Energiya resurslarini tejash bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbir rejasiga asosan departament va bo'limlar tomonidan berilgan ma'lumotlar har oy yakuni bilan jamlanib, O'zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligiga, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi (O'zenergoinspeksiya)ga taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi "Tabiiy gaz va suyuq uglevodородni qazib chiqarish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish hisobini yuritish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-157-son Qaroriga asosan Nazorat rejasi va Yo'l xaritasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi, ijrosi bo'yicha ma'lumotlar taqdim etildi.

"O'ztransgaz" AJ IMTda talablari MC: ISO 9001:2015; 14001:2015; 45001:2018; 50001:2018 bo'yicha bajarilgan ishlar:

"O'ztransgaz" AJning 2023-yilga mo'ljallangan Integrallashgan menejment tizimi sohasidagi maqsadlari, MTH 3/1 "O'ztransgaz" AJning Integrallashgan menejment tizimi sohasida vazifalarni bajarish bo'yicha chora-tadbirlar Boshqaruv raisi tomonidan 2023-yil 20-yanvar kuni tasdiqlandi.

"O'ztransgaz" AJning 2021-yil 5-iyuldagi IMT bo'yicha DHK 117-son buyruq qayta ko'rib chiqildi va Jamiyatning 2023-yil 20-yanvardagi 10-son buyrug'i bilan yangilandi.

"O'ztransgaz" AJning 2023-yil 20-yanvardagi 10-son buyrug'ini bajarish maqsadida, har chorakda 2023-yil uchun IMS bo'yicha bajarilgan ishlar bo'yicha Jamiyatning departament va mustaqil bo'limlari hamda tarkibiy tuzilmalari tomonidan 7 ta jarayon bo'yicha tayyorlangan hisobotlar jamlanib, tahlil qilindi.

MC: ISO 9001 talablariga muvofiq Jamiyatning 8 ta kontragentlariga so'rovnomalar yuborilib, "O'ztransgaz" AJ bilan hamkorlikdan mamnunligi bo'yicha tahlil o'tkazildi.

"O'ztransgaz" AJ "Kontekst tahlili" boshqaruv tizimi hujjati tayyorlanib "O'ztransgaz" AJning IMT bo'yicha DHK mas'ul xodimlari bilan 2023-yil 14-fevralda kelishish ishlari amalga oshirildi.

IMT konsalting xizmatlaridan foydalanish bo'yicha texnik topshiriq shartlari asosida tashkiliy ishlar amalga oshirildi. "SMS Systems" konsalting kompaniyasi va "O'ztransgaz" AJ o'rtasida shartnoma tuzildi hamda o'rnatilgan tartibda "O'ztransgaz" AJ IMT siyosati ishlab chiqildi, IMT bo'yicha qo'llanma yangilandi va 2023-yil 10-mayda tasdiqlandi.

"CERT International" MChJ sertifikatlashtirish organi tomonidan Audit o'tkazish rejasiga asosan, joriy yilning 22-maydan 27-maygacha sertifikatlashtirish auditori o'tkazildi. Qayta sertifikatlash, sertifikatlashtirish auditorini muvaffaqiyatli yakunlash natijasiga ko'ra "O'ztransgaz" AJ IMT: ISO 9001:2015; 14001:2015; 45001:2018; 50001:2018 standartlari talablariga muvofiqligi bo'yicha yangi xalqaro va milliy sertifikatlarini olishga erishildi. 2023-yil 25-may kuni sertifikatlashtirish tizimidagi milliy UZ.SMT.04.0010.16123-son hamda xalqaro IMS-0270/V-son sertifikatlari berildi.

2023-yil 22-maydan 27-maygacha "O'ztransgaz" AJ integratsiyalashgan boshqaruv tizimining MT: ISO 9001:2015, ISO 14001:2015, ISO 45001:2018, ISO 50001:2018 talablariga muvofiqligi bo'yicha qayta sertifikatlash, sertifikatlashtirish auditori natijalari bo'yicha nomuvofiqliklarni bartaraf etish va auditorlar tavsiyalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi va 2023-yil 12-iyunda tasdiqlandi.

"O'ztransgaz" AJning "SMS Systems" konsalting kompaniyasi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, Jamiyat ijroiya apparati bo'yicha jami 85 ta xodimni integrallashgan menejment tizimi joriy etish bo'yicha ichki auditorlarni tayyorlash o'quv kurslarida o'qitildi.

"O'ztransgaz" AJning IMT sohasida 2023-yilga mo'ljallangan Maqsadlarga erishish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi yuzasidan har chorakda Jamiyat ijroiya apparati va tarkibiy tuzilmalaridan hisobotlar yig'ib, tahlil qilinib kelinmoqda.

Idoralararo ijro intizomiga Texnik siyosat bo'limi tomonidan mas'uliyat bilan yondashgan holda, kelib tushgan har bir topshiriq va xatlar ijrosi muntazam o'z vaqtida va sifatli ta'minlanib kelinmoqda.

'Texnik siyosat bo'limi boshlig'i



X. Maxmudov

**Метрология департаменти бўйича 2023 йил амалга
оширилиши ишлар бўйича
МАЪЛУМОТ**

1. Ўзбекистон Республикасининг газ транспорт тизимини Россия газини қабул қилиш ва ташишга тайёрлаш бўйича чора-тадбирлар режасига мувофиқ “Қорақалпоғистон” газ ўлчаш станцияси (ГЎС) вақтинчалик схема бўйича қурилиб, ўлчов мажмуалари метрологик аттестациядан ўтказилди ва ишга туширилди.

2. Магистрал газ қувурлари бошқармалари (МГҚБ) метролог ходимлари учун завод ишлаб чиқарувчи “EMERSON” компанияси мутахассислари иштирокида замонавий “Rosemount 4088” датчикли “FloBos-107” электрон газ ҳисоблаш ускунаси билан ишлаш бўйича жорий йил 27 - 31-март кунлари малака ошириш ўқув курси ташкил этилди ва 11 та мутахассис малакаси оширилди.

3. Газ тақсимлаш станциялари ва газ ўлчаш станцияларига ўрнатилган узок муддат фойдаланиб келинаётган, маънан эскирган 247 та “AutoPILOT”, “FloBoss-407” ва “FloBoss-103” русумли электрон газ ҳисоблаш ускуналарини янги замонавий “FloBoss-107” русумли электрон газ ҳисоблаш ускуналарига босқичма-босқич алмаштирилди, маънан эскирган электрон газ ҳисоблаш ускуналари янгиланди.

4. “AutoPILOT PRO” ўлчов тизимидан фойдаланиш давомида аниқланган камчиликлар юзасидан “Киберхавфсизлик маркази” давлат унитар корхонасидан хулоса олинди ва уларни бартараф этиш масаласида “Ўзбекистон миллий метрология институти” давлат муассасаси ва “Киберхавфсизлик маркази” давлат унитар корхонаси билан ҳамкорликда ишлар ташкил этилди.

5. “Газли-Каган-4” газ ўлчаш станцияси қурилди, ўлчов мажмуаларини ва электрон газ ҳисоблаш ускуналарини метрологик назоратини олиб борилди ва ишга туширилди;

6. “493 км” газ ўлчаш станцияси ўтказувчанлигини ошириш мақсадида қўшимча тармоқ қурилди, ўлчов мажмуалари метрологик аттестациядан ўтказилди;

7. Газ тақсимлаш ва газ ўлчаш станциялари электрон газ ҳисоблаш ускуналарига АСКУЭР ва ТП тизими қурилмаларини ўрнатиш ишлари амалга оширилди.

8. Магистрал газ узатиш тизими керакли нукталарига ҳарорат ва босим датчикларини харид қилиш учун техник топшириқ ишлаб чиқилди ва харид қилинди.

9. Ўзбекистон миллий метрология институти давлат муассасасида ва “Суд экспертиза маркази”да электрон газ ҳисоблаш ускуналарини эксперт қиёслаш кўригидан ўтказиш ишларида қатнашилди, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга консултив ёрдамлар кўрсатилди, истеъмолчилар томонидан ноқонуний газдан фойдаланганлик ҳолатлари бўйича прокуратура суриштирув ва суд жараёнларида мутахассис сифатида иштирок этилди.

10. Газ ўлчаш ва газ тақсимлаш станциясида янги қурилаётган ҳамда реконструкция қилинаётган тармоқлар лойиҳа-техник ҳужжатларининг метрология ва НЎА ва А қисмлари кўриб чиқилди, таклиф ва эътирозлар тақдим этилди.

11. Ишлаб чиқариш фаолиятини мониторинг қилиш, ҳамда МГҚБ ва ГЕОСИ метрология хизмати мутахассисларига амалий ёрдам кўрсатиш учун Жамият тузилмаларига хизмат сафарига борилди.

12. Техник ва метрологик таъминот (электрон газ ҳисоблаш ускуналарини таъмирлаш, ўлчов комплекси сертификатларини расмийлаштириш, торайтирувчи қурилма ҳисоб-китобларини тайёрлаш) масалалари бўйича Магистрал газ қувурлари бошқармалари (МГҚБ) ва Газни ер остида сақлаш иншооти (ГЕОСИ) мутахассисларига амалий ёрдам кўрсатилди.

**Метрология Департаменти
бошлиғи**



И. Ахмедова

“Ўзтрансгаз” АЖ ва унинг таркибий бўлинмасидаги ташкилот ва корхоналарнинг шартномаларини рўйхатдан ўтказиш ва харажатларини амалга ошириш бўйича Ғазначилик ва молия Департаменти томонидан 2023 йилда амалга оширилган ишлар тўғрисида

А Х Б О Р О Т

2023 йил давомида, жами 13 та ташкилот ва корхоналарга шартномаларни рўйхатдан ўтказиш ва харажатларини тўлаб бериш амалиёти кўрсатилган бўлиб, шундан 2 та Газни ер остида сақлаш иншоотлари, 7 та Магистрал газ қувурлари бошқармалари, “Ургенчтрансгаз” УК ва 3 та (“Трансгазинжиниринг” МЧЖ, “Ёрдамчи хўжалик” МЧЖ, “Трансгазмахсусқурилиш” АЖ) корхоналарнинг шартномалари рўйхатдан ўтказилиб тўлов ҳужжатларига асосан ғазна амалиётлари амалга оширилди.

Жумладан:

2023 йилда жами **4 108 та** умумий суммаси **1 715,1 млрд сўмлик** шартномалар белгиланган тартибда рўйхатга олинди.

Шундан **304 та** ҳолатда умумий қиймати **263.8 млрд.сўмлик** шартномалар хато ва камчиликларга йўл қўйилганлиги, тасдиқланган харажатлар сметасидан ошириб юборилганлиги сабабли тегишли департамент ва бошқармаларга қайтарилди.

Бундан ташқари қурилиш-монтаж ишлари ва инвестициялар бўйича шартномалар нархи назорати бўлимига январ-декабрь ойлари давомида қурилиш-таъмирлаш ишлари бўйича молиялаштириш учун тақдим қилинган талабномалар ва бажарилган ишлар далолатномаларини кўриб чиқиш жараёнида **15 та** жами **5,7 млрд сўм** миқдорида асоссиз тўловлар олди олинди ва жамият ҳисобига иқтисод қилинишига эришилди.

Иш ҳақи ва унга тенглаштирилган тўловлар учун буюртмалар, рўйхатга олинган шартномалар ҳамда бошқа тўлов ҳужжатларига асосан **6 395 та** умумий суммаси **1 179,6 млрд.сўмлик** тўлов ҳужжатлари рўйхатга олинди ва ғазна амалиётлари амалга оширилди.

Аниқланган хато ва камчиликлари ҳамда тасдиқловчи ҳужжатлар тақдим этилмаганлиги сабабли рўйхатга олинмай қайтарилган шартномалар ва тўлов ҳужжатлари сони **27 та** бўлиб, умумий суммаси **2,3 млрд.сўмни** ташкил этди.

1С ва банк клиент дастурий таъминотини такомиллаштириш натижасида Республика бўйича магистрал газ қувурлари бошқармалари

тўлов тизими марказлаштирилди ва тўлиқ назоратга олинди, маълумотлар шаффофлиги таъминланди.

Юридик ва молиявий мажбуриятларни рўйхатдан ўтказиш ва харажатларни тўлаш тўғрисидаги ягона электрон база доимий равишда олиб борилмоқда.

“Ўзтрансгаз” АЖ томонидан жамият таркибидаги корхоналар маблағлари ҳаракатини рақамли иқтисодиёт принципларига асосланган ҳолда ташкил этиш ва уларни тўлақонли назорат қилинишига эришиш, молиявий-хўжалик фаолиятда ҳисобот юритишда дастурий маҳсулотлардан кенг фойдаланиш мақсадида, 1С дастурига ғазначилик амалиётини амалга ошириш учун тегишли ўзгартиришлар киритиш ишлари олиб борилмоқда.

Шунингдек, 2023 йилда “Ўзтрансгаз” АЖ эҳтиёжи учун зарур бўлган товар (иш, хизмат) ларга бўлган талабномаларни кўриб чиқиш, асослилигини ўрганиш ва оптимизация қилиш билан боғлиқ ишлар давом эттирилмоқда.

Жамиятнинг таркибий тузилмалари ғазначилик ходимлари фаолиятларини мувофиқлаштириш мақсадида, департамент ходимлари томонидан мунтазам равишда тушунтириш ишлари амалга ошириб келинмоқда ва ғазначилик йўналишининг фаолияти жамият маблағларидан самарали, оқилона, манзиллилиги ва натижадорлигини таъминлаган ҳолда харажатларни амалга ошириш, ягона электрон базани яратиш, коррупцияга йўл қўймаслик ҳамда мунтазам равишда дастлабки ва жорий назоратни амалга ошириб борилиши билан боғлиқлиги тўғрисида тушунтириш ишлари олиб борилмоқда ҳамда амалий ёрдам кўрсатиб келинмоқда.

**Ғазначилик ва молия
Департаменти бошлиғи:**



Х.Юнусов

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash borasida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahliliy

AXBOROTNOMA

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2023-yilning yanvar- dekabr oylarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tizimli asosda tashkil etish, quyi tuzilmalarda olib borilayotgan ishlarni muntazam o‘rganib borish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish, murojaatlarga sabab bo‘layotgan omillarni tahlil etish va ularni bartaraf etish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasiga aholidan ko‘plab murojaatlar tushishining oldini olish maqsadida aksiyadorlik jamiyatning barcha magistral gaz quvurlari boshqarmalarida faoliyat ko‘rsatayotgan “fuqarolar qabulxonalari”da aholi uchun shart-sharoitlar tashkil etilgan, jumladan kirish yo‘llari, asosiy kirish joyi, panduslar, fuqarolarni qabul qilish xonalariga ega bo‘lishi ta‘minlangan.

2023-yilning yanvar- dekabr oylarida mutaxassislar tomonidan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyatining tarkibiy tuzilmalariga chiqib murojaatlarda tez-tez ko‘tariladigan muammoli masalalar bo‘yicha tahlillar o‘tkazish, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va qoidabuzarliklarning sabablarini bartaraf etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishining oldini olish choralarini ko‘rish maqsadida o‘rganishlar o‘tkazildi, ularga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatildi.

Joylarda o‘tkazilgan o‘rganishlarda murojaatlar bilan bevosita ishlaydigan mas‘ul xodimlarga O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun va mohiyatini yetkazish choralari ko‘rildi.

Hisobot davrida o‘rganish natijalari bo‘yicha tasdiqlangan dasturlar asosida “O‘ztransgaz”AJ mas‘ul xodimlari tomonidan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan qoida va talablarning mazmun va mohiyatini to‘liq tushunib olish, amaliyotda keng va samarali qo‘llash mavzusida o‘tkazilgan o‘rganishlar soni 8 marotaba hamda seminar mashg‘ulotlari soni 4 bor o‘tkazilgan.

“O‘ztransgaz”AJ boshqaruv raisi hamda uning o‘rinbosari boshchiligida respublikaning barcha tuman va shaharlarida o‘tkaziladigan sayyor qabullari tasdiqlangan grafiklari asosida tashkil etildi.

Hisobot davrida ishchi guruhlar tomonidan respublikaning barcha tuman va shaharlarida jami 22 ta sayyor qabul o‘tkazildi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston

Respublikasida ikki bor, Andijon viloyatida bir bor, Buxoro viloyatida to'rt bor, Jizzax viloyatida ikki bor, Qashqadaryo viloyatida ikki bor, Samarqand viloyatida to'rt marotaba, Farg'ona viloyatida uch bor, Xorazm viloyatida ikki marotaba va Toshkent shahrida ikki marotaba.

Ommaviy va sayyor qabullar davomida murojaat qilayotgan fuqarolar muammolarini hal etishga alohida e'tibor qaratilib, qabullarning natijadorligiga erishish, murojaatlarni xolis va tezkor ko'rib chiqishga qaratilgan aniq choralar ko'rildi.

O'tkazilgan ushbu sayyor qabullarda fuqarolardan jami 90 ta og'zaki murojaatlar tushgan bo'lib, ko'tarilgan muammoli masalalar joyida mutaxassislar tomonidan hal etildi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida "O'ztransgaz" AJ markaziy apparati, uning quyi korxonalar va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan 1784 tasi bevosita yozma, 689 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali murojaatlar kelib tushgan. Murojaatlarning ko'rib chiqilishi to'liq nazoratga olinib, 695 tasi qanoatlantirilgan, 1460 tasi bo'yicha mualliflarga to'liq tushuntirishlar berilgan, 36 tasi tegishliligi bo'yicha boshqa tashkilotga yuborilgan, 10 tasi rad etilgan, 228 tasi ko'rmasdan qoldirilgan va 44 tasi o'rganish jarayonida.

Hisobot davrida "O'ztransgaz" AJ boshqaruv raisi, uning o'rinbosarlari va mutaxassislar tomonidan bevosita aksiyadorlik jamiyatida shaxsiy qabullarda 40 nafar, ishonch telefoni orqali 15 nafar va sayyor qabullarda 90 nafar shaxslar qabul qilingan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda kamchilik va qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ygan rahbar va mas'ul xodimlarga nisbatan javobgarlik choralari ko'rilishi ta'minlanmoqda.

"O'ztransgaz" AJ tomonidan 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida murojaatlar ko'rib chiqish natijalari bo'yicha OAVda 37 marta chiqish amalga oshirilgan. Jumladan, telekanallarda va radioda 3 bor, aksiyadorlik jamiyati veb-saytida 34 bor chiqishlar tashkil etilgan. Idora rasmiy veb-saytida murojaatlar bilan ishlash natijalari bo'yicha joylashtirilgan hisobotlar soni to'rt marotaba.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida "O'ztransgaz" AJ markaziy apparati, uning quyi korxonalar va tashkilotlarida aholi bilan bevosita ishlash, ularning muammolarini aniqlash va hal qilishni nazarda tutuvchi tizimda faoliyat ko'rsatish choralari ko'riladi.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i



S.Sidiqjanova